

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

O'ZBEK TILINI CHET TILI SIFATIDA O'QITISHDA TINGLASH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Abdurasulov Qobiljon Qodirjon o'g'li
tayanch doktorant Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Annotatsiya. Nutqni idrok etishda tinglab tushunish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Til o'qitishda tinglab tushunish ko'nimmasini shakllantirishga oid yondashuvlar tahlili berilgan bo'lib, tinglab tushunish ko'nikmasi va malakasini shakllantirishning metodikasi shunigdek, uning o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. O'z navbatida maqolada axborotni og'zaki idrok etish muvaffaqiyatini ta'minlaydigan jarayonlarning funksional xususiyatlari tahlil etiladi va boshlang'ich darajadagi til o'rganuvchilar uchun namunaviy topshiriq va mashqlar beriladi. Til o'rganuvchilar uchun matn tanlashda audio matnlarga qo'yiladigan talablar talabaniq nutqiy va hayotiy tajribasi hamda qiziqishlari va o'z navbatida nutqiy faolivatiga mos kelishi kabi jihatiga to'g'ri yondashish kerak. Shuningdek, audiomatn ham aniq va qisqa tuzilishga ega bo'lishi kerak. Grammatik jihatdan mukammal bo'lgan matnlar o'quvchilarning bilimiga va ularning matnni samarali tarzda tushunishlariga katta yordam beradi.

Tayanch so'zlar: idrok, til, yondashuv, nutq, audiomatn, tahlil, ko'nikma, tinglab tushunish, malaka, metodika, mazmun.

DEVELOPING LISTENING SKILLS IN TEACHING UZBEK\AS A FOREIGN LANGUAGE

Abdurasulov Qobiljon Qodirjon o'g'li
Doctorant of the Uzbek language and literature university named after Alisher Navoi

Annotation. The process of listening comprehension is very important in the perception of speech. An analysis of approaches to developing listening skills in language learning is presented, the methodology for developing listening skills and abilities is discussed, as well as its role and significance. In turn, the article analyzes the functional characteristics of the processes that ensure the success of oral perception of information and provides typical tasks and exercises for language learners at the primary level. When selecting text for language learners, it is necessary to correctly approach the requirements for audio texts, such as the student's speech and life experience and interests, and in turn, their speech activity. Also, the audio text should have a clear and concise structure. Grammatically perfect texts greatly contribute to students' knowledge and their effective understanding of the text.

Key words: perception, language, approach, speech, audio text, analysis, skills, listening comprehension, skills, methodology, content.

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО

Абдурасулов Кобилжон Кодиржон угли
докторант Ташкентского государственного
университета узбекского языка и литературы
имени Алишера Навои

Аннотация. Процесс аудирования очень важен в восприятии речи. Представлен анализ подходов к развитию навыков аудирования при обучении языку, обсуждена методика развития навыков и умений аудирования, а также ее роль и значение. В статье, в свою очередь, анализируются функциональные характеристики процессов,

обеспечивающих успешное восприятие информации устно, а также даются типичные задания и упражнения для обучающихся языку на начальном уровне. При выборе текста для обучающихся языку необходимо правильно подойти к требованиям к аудиотекстам, таким как речь и жизненный опыт и интересы обучающегося, и в свою очередь, его речевая активность. Кроме того, аудиотекст должен иметь четкую и лаконичную структуру. Грамматически совершенные тексты в значительной степени способствуют знаниям учащихся и их эффективно пониманию текста.

Ключевые слова: восприятие, язык, подход, речь, аудиотекст, анализ, навыки, аудирование, навыки, методика, содержание.

O'zbek tilini o'rganish tobora ommalashib bormoqda. AQSH, Koreya, Xitoy, Turkiya, Rossiya, Polsha kabi turli mamlakatlardan ko'plab talabalar ta'limni o'zbek tilida davom ettirmoqda. Shunday qilib, ular o'zbek tilini o'z vatanlarida o'rganishni boshladilar. Va bu dastlabki qadamlar haqiqatan ham muhim hisoblanadi. Boisi o'zbek tili chet ellik talabalar uchun grammatik jihatdan qiyin va murakkab.

Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'qitish jarayoni lingvistik materialni har tomonlama qamrab olish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi, ya'ni leksik, grammatik va fonetik materiallar real muloqotni o'z ichiga olgan ma'lum komplekslarda jamlanadi. Nutq o'quvchilardan turli til ko'nikmalari: tinglash, gapirish, o'qish va yozish bo'yicha ko'nikma va malakalarni talab qiladi

Tinglash til o'rganishdagi eng muhim faoliyat turlaridan biridir. Tinglash faol ijodiy jarayon bo'lgan og'zaki nutqni idrok etish va tushunishdir. Tinglovchi allaqachon shakllangan fikrlarni idrok etadi va tushunadi. Buni o'z navbatida aqliy faoliyat va xotiradagi murakkab jarayon sifatida qarash mumkin. Dastlab, tinglash so'z va u anglatayotgan ma'no asosida rivojlantirilishi kerak. Bu artikulyatsiya va eshitish sezgilari o'rtasida mustahkam aloqalarni o'rnatishga yordam beradi.

Shuning uchun tinglab tushinish ko'nikmasini shakllantirishda nutq va fonetik mashqlardan oldin kuylash, taqlid qilish maqsadga muvofiq.

Chet ellik talabalar uchun eng qiyin jihatlardan biri o'zbek tilining fonetik tuzilishidir. Bir tomondan fonetik farq bo'lsa, ikkinchi tomondan morfologik farqdir.

Tinglab idrok etish jarayonining muvaffaqiyati, bir tomondan, tinglovchining o'ziga yani uning xotirasi, diqqat-e'tibori, qiziqishi va nutqiy eshitish darajasiga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan idrok qilish sharoitiga (nutq tezligi, taqdimotlar soni, davomiyligi va boshqalar), shuningdek, og'zaki xabarlarining murakkabligi ham muhim hisoblanadi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar til o'rganuvchilarning tajribasi va bilimlariga qanchalik mos kelishini hisobga olish muhimdir.

Shu o'rinda tinglash orqali tilni o'rgatish nafaqat nutq mexanizmlarini ishlab chiqish va o'rgatish, balki rivojlantirishni ham o'z ichiga olishini inobatga olsak qabul qilishni murakkablashtiradigan qiyinchiliklarni ham yengib o'tish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish birlamchi fazifa ekanligini qayd etmoqlik lozim.

Tinglab idrok etishdagi qiyinchiliklarni tilshunos olim N.A.Rijak o'zining qo'llanmasida quyidagicha guruhlaydi:

“Eng asosiy qiyinchiliklar guruhi bu idrok qilish sharoitlari (ma'lumotni bir marta taqdim etish, turli xil ovoz xususiyatlari va talaffuz uslubiga ega bo'lgan odamlar nutqini tushunish, so'zlovchi tomonidan qo'llaniladigan nutq tezligi, intonatsiya ohanglari va boshqalar) bilan bog'liq qiyinchiliklardir.

Ikkinchi guruh - lisoniy shaklni idrok etish bilan bog'liq qiyinchiliklar.

Uchinchi guruh - jaranglovchi nutq mavzusini idrok etish, umumiy g'oya, matnning ma'nosi va so'zlovchining maqsadini anglash bilan bog'liq qiyinchiliklardir”. [1, 66-b].

Vlasenko Natalya va Tolmachyova Irina kabi tilshunos olimlarning tushunish ko'nikmalari izchil rivojlantirishga qaratilgan ikki guruh mashqlar - til va nutq mashqlaridan foydalanishni haqida so'z yuritadilar. Shuningdek, til mashqlari o'quvchilarni tinglashga tayyorlaysa, nutq mashqlari o'quvchilarni tinglashga nutqiy faoliyat sifatida qarashga o'rgatishi mumkinligini ta'kidlashadi. [2, 159-b].

Til o'rganuvchilar uchun matn tanlashda audio matnlarga qo'yiladigan talablar talabaning nutqiy va hayotiy tajribasi hamda qiziqishlari va o'z navbatida nutqiy faoliyatiga mos kelishi kabi jihatiga to'g'ri yondashish kerak. Biroq ba'zi o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Mashg'ulot boshida matnning umumiy ijro vaqti 1-2 daqiqadan oshmasligi kerak. Samarali tinglash vaqtini keyinchalik bosqichma-bosqich oshirish kerak.

Audiomatn aniq va qisqa tuzilishga ega bo'lishi kerak. Albatta, matn odatda uch qismga bo'linadi: kirish, asosiy qism va xulosa. Dastlab, tanish til materialidan iborat matnlardan foydalanish afzalroqdir. Olti-sakkiz haftalik tajribadan so'ng talabalarga notanish so'z boyligini o'z ichiga olgan audiomatnlarni taklif qilinishi mumkin. Bu o'rinda matnlar jamlanmasi aynan mavzulashtirilgan va hayotiy vaziyatga moslashtirilgan bo'lishi tinglab tushinish ko'nikmasini shakllantirishda samarali hisoblanadi.

Nutqiy vaziyatlarni tinglash va xabarlarini tushunish turli usullar bilan tekshirilishi mumkin. Jumladan, til o'rganuvchilar kerakli ma'lumotni topganlarida qo'llarini ko'taradilar yoki ma'lum belgilardan foydalangan holda noverbal qaydlar qiladilar. Ularga xabarlar mazmunini aks ettiruvchi rasmlar ko'rsatilganda, rasmlar xabar mazmuniga mos kelishiga qarab, «ha» yoki «yo'q», «to'g'ri» yoki « noto'g'ri », «qo'shilaman» yoki «qo'shilmayman», «mos keladi» yoki «mos kelmaydi» kabi variantlar orali ma'lumotni qabul qiladilar yoki rad etadilar.

Shuningdek, bu yerda o'qituvchi tinglovchiga bir qator ma'lumotlarni o'zida aks ettirishi mumkin bo'lgan ko'p tanlovli javob variantini tanlash kerak bo'lgan testlardan foydalanishi ham mumkin. Biroq, bu usul faqat umumiy tushunchani tekshirish imkonini beradi.

Asosiy maqsad tushunish darajasining to'liqligi va chuqurligini tekshirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, tinglovchilarga quyidagi topshiriqlar berilishi mumkin: audio matnlarning bosma shakli. Unda:

- bo'shliqlarni to'ldirish;
- javob berish;
- savollar shakllantirish;
- matnning aynan belgilangan qismlarini og'zaki yoki yozma takrorlash;
- axborotga o'z munosabatini bildirish orqali sharh berish;
- olingan ma'lumotlardan muhokama jarayonida isbotlash uchun foydalanish yoki muhokama qilingan bayonotni rad etish. [3, 48-b].

Ta'lim jarayonida barcha nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish zarur ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, bu nutqiy faoliyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligining yana bir isbotidir. Bu esa integrallashgan va tizimlashgan nutqning o'ziga xosligini isbotlaydi.

O'qituvchilar tomonidan boshlang'ich va o'rta bosqichlarda o'quvchilarning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalanish mumkin bo'lgan samarali o'yinlarga misollar keltiramiz. Ma'lumki o'yin vazifalari ta'lim jarayoniga xilma-xillikni olib kirish va uning o'quvchilar uchun jozibadorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. O'yinlar qiziqishni oshirishi, diqqatni jamlashdan tashqari, O'zbek tilining lug'ati, fonetikasi va grammatikasini samarali o'zlashtirishga yordam beradi. Quyida ba'zi misollar keltirilgan:

Ha yoki yo'q?

Tajribda qo'llanilgan material.

Bu o'yinni har qanday tushunish darajasida qo'llash mumkin.

Shakllantirilgan savollar va unda ishlatilgan so'zlar tajriba ishtirokchilari uchun aniq va tushunarli bo'lishi kerak.

O'yinga tayyorgarlik. Qiyinchilikni oshirish tartibida mos savollar ro'yxatini tuziladi.

Savollar soni ishtirokchilardan uch baravar ko'p bo'lishi kerak. Ba'zi bir savollardan bir necha marta foydalanish mumkin.

O'yin tavsifi. O'yinning qiyinlik darajasidan kelib chiqib barcha ishtirokchilarda bir nechta imkoniyat taqdim etiladi. Aytaylik, ularning har biriga 4 ta imkoniyat beriladi va stolda o'sha imkoniyat miqdoricha kitob bo'ladi. O'qituvchi javob sifatida «ha» yoki «yo'q» javobini talab qiladigan savollarni beradi.

Savollar butun guruhni qamrab olishi va boshlang'ich darajaga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Barcha ishtirokchilar bir vaqtni o'zida o'qib eshittirilgan savolga o'z munosabatini bildirishadi. O'qituvchi o'quvchilarning o'ylashiga juda kam vaqt ajratib, tez-tez savollar beradi. Agar o'quvchi noto'g'ri javob bersa, u imkoniyatini yo'qotadi va stoldan kitobni olib tashlaydi. O'yinchilar bir nechta imkoniyatga ega bo'lganligi sababli, ular o'yinni juda tez tark etmaydilar va shu tariqa o'yinga bo'lgan qiziqish saqlab qoladi. Til bilish darajasiga qarab savollarga misollar:

A1 va A2 daraja:

Is this a cat? (demonstration of a picture)

Bu mushukmi? (rasm namoyishi)

Is this man a soldier? (demonstration of a picture)

Bu odam askarmi? (rasm namoyishi)

Are there two computers in the room?

Xonada 2 ta kompyuter bormi?

are you currently learning french?

Siz hozir fransuz tilini o'rganayapsizmi?

Izoh. O'quvchilar o'yinni birinchi marta o'ynaganda «ha» yoki «yo'q» deb javob beradilar. Shunday qilib, o'yin ularning umumiy tushunchasini tekshiradi. Keyinroq esa savollarga «ha, xonada 2 ta kompyuter bor», yoki «yo'q, bu odam askar emas» kabi to'liq javob berishi mumkin.

Navbatdagi topshiriq bir necha maqsadga yo'naltirilgan topshiriq hisoblanadi. Bunda tinglovchilarning:

audiomatndagi ma'lumotlarni tahlil qilish;

qisqa javib berish;

bo'sh qoldirilgan jumlar o'rnini to'ldirish;

ko'p variantli javoblar orasidan to'g'ri ma'lumotni saralash

kabi jihatlarni samalari rivojlantirish va tekshirishga qaratilgan topshiriq turlari integratsiya qilingan bo'ladi.

A1 va A2 daraja uchun tinglab tushunish mashqidan namuna.

-Salom.

-Salom! Men kompyuter kursida o'qimoqchiman.

-Yaxshi. Ism-familiyangiz nima?

-Lola Abdullayeva

-Necha yoshdasiz?

-17da

-Manzilingizni ayting.

-Olmazor tumani, Yoshlik ko'chasi, 7-uy

-Telefon raqamingizni ayting.

-998997551525

-Darslar haqida to'liq ma'lumotni informatika o'qituvchisidan olasiz, keying xonaga kiring

-Rahmat!

MASHQ. Audioni tinglang va bo'sh qoldirilgan qatorlarni to'ldiring.

Savollarga javob bering.

1. Qizning ismi _____

2. Qizning yoshi _____
 3. Qiz qaysi kursda o'qimoqchi _____
 4. Uning manzili _____
 5. Uning telefon raqami _____
- To'g'ri javobni toping.
1. Qizning ism-familiyasi nima?
 - A) Zilola Xayrullayeva
 - B) Lola Abdullayeva
 - C) Hilola Abdullayeva
 2. Qiz necha yoshda?
 - A) 12
 - B) 17
 - C) 19
 3. Qiz qayerda yashaydi?
 - A) Olmazor tumani, Yoshlik ko'chasi, 17-uy
 - B) Yashnabod tumani, Do'stlik ko'chasi, 2- uy
 - C) Olmazor tumani, Yoshlik ko'chasi, 7-uy
 4. Uning telefon raqami qaysi javobda to'g'rik keltirilgan?
 - A) 998997551525
 - B) 998991551222
 - C) 998901551222

Tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan o'yin topshiriqlarining shu va boshqa turlari foydali bo'lib, qiyin va murakkab ma'lumotlarni chuqurroq tahlil etish va tinglovchilar uchun qiziqarli shaklda taqdim etish imkonini beradi. Agar mashqlar undagi ma'lumotlar kabi turli-tuman bo'lsa

til o'rganuvchilar uchun O'zbek tili darslari yanada ahamiyatliroq bo'ladi. Chunki til o'z-o'zidan emas, balki o'zini va dunyoni bilish, anglash orqali o'rganiladi.

ADABIYOTLAR

Рыжак, Н.А. “200 обучающих игр на занятиях иностранным языком: пособие для преподавателей” / Н.А. Рыжак. – М.: Астрель: АСТ, 2009. – 158.

Власенко Н.И, Толмачёва И.А. Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # 4 (13), 2015 | ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ. -159.

Chamberlin, A. Play and Practice: graded games for English language teaching) / Anthony Chamberlin, Kurt Stenberg. – Illinois: National Textbook Company, 1979. – 115 p.

Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. (O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi talabalar uchun qo'llanma sifatida tavsiya etgan). – T.: O'qituvchi, 1992– 215 b.

Ushakova N. Listening as one of the ways to teach a foreign language to foreign students. – Ukraina.: Kharkiv National Automobile and Highway University 2020. P 438-440.

Маркова А.К. Формирование мотивация учения в школьном возрасте. Пособие для учителя. – М.: Просвещение, 1983 г. 96-201 с.